

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI INTERFAOL
METODLAR ASOSIDA IMLOVIY BILIMLARNI TEKSHIRISH
USULLARI**

Marjona Aslamova

Samarqand davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası

o'qituvchisi **Maxfuza Omonillayeva**

E-maail: mahfuzaomonullayeva@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining imloviy bilimlarini interfaol metodlar yordamida tekshirishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Maqolada "Aqliy hujum", "Klaster", "Muammoli vaziyat", "Raketa o'yini" va "Kahoot" kabi raqamli platformalardan foydalanish orqali imloviy ko'nikmalarni baholashning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va imloviy xatolar sonini kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari interfaol metodlarning an'anaviy usullarga nisbatan afzalliklarini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, imloviy bilimlar, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, raqamli platformalar, o'quvchilar faolligi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish jarayonida maxsus ishlab chiqilgan metod va usullardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Maxsus metodlar deganda didaktik o'yinlar, innovasion texnologiyalar, modulli o'qitish texnologiyasi va boshqalar misol bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun imloviy bilimlarni shakllantirish va tekshirish - ularning yozma savodxonligini rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon o'quvchilarning tilga bo'lgan ongli munosabatini, grammatik me'yorlarga e'tiborini va o'z fikrini yozma ravishda aniq ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi. **Imloviy bilimlar** deb o'quvchilarning so'z va gaplarni yozishda orfografik me'yorlarga rioya qilgan holda yozish bo'yicha egallagan bilim va amaliy ko'nikmalariga aytiladi. Bunga harfiy tarkibni to'g'ri yozish, qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, bosh harf, qo'shib yozish, ajratib yozish va defisli yozuvlar kabi orfografik bilimlar kiradi. Boshlang'ich ta'limda bu bilimlarni shakllantirishda **nutq faoliyatining yozma turi** asosiy ahamiyat kasb etadi. Yozma nutqni o'rgatish va uni to'g'ri nazorat qilishda o'qituvchining metodik yondashuvi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan olib qargalanda, dars jarayonida faqat an'anaviy metodlar emas, balki **interfaol yondashuvlar** asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining imloviy ko'nikmalari ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Imlo qoidalarini to'g'ri qo'llash o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy ta'lim usullari ko'pincha o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni yodlashga yo'naltiradi, bu esa ularning ijodiy faolligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda yetarli samara bermasligi mumkin. Shu sababli, zamonaviy ta'limda interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning imloviy bilimlarini mustahkamlash va tekshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Interfaol metodlar o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikni ta'minlaydi, bu esa bilimlarni o'zlashtirishni yanada samarali qiladi. Ushbu metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Imloviy bilimlarni tekshirishda interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, imlo qoidalarini amaliy mashqlarda qo'llash orqali mustahkamlaydi, raqamli platformalar orqali real vaqtda natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini imloviy bilimlarni tekshirishda "Aqliy hujum", "Klaster", "Muammoli vaziyat" kabi interfaol metodlar o'z samarasini beradi. "Aqliy hujum" metodi o'quvchilarni guruhlarda ishlashga jalb qilish orqali imlo qoidalariga oid savollar yoki muammolar yuzasidan erkin fikr almashishni ta'minlaydi. Masalan, "Undoshlarning qattiq va yumshoq talaffuzi" mavzusida o'quvchilar guruhlarda so'zlarni to'g'ri yozishga oid misollar keltiradilar. Bu jarayonda o'qituvchi faqat yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi.

"Klaster" metodi imlo qoidalarini tizimli ravishda tahlil qilish uchun qulaydir. Masalan, "uzun-" va "uzun" so'zlari o'rtasidagi farqni tushuntirish uchun o'quvchilar klaster sxemasi tuzadilar, unda so'zlarning yozilishi va ularning ma'nolari guruhlanadi. Bu metod o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va imloviy xatolarni aniqlashga yordam beradi.

"Muammoli vaziyat" metodida muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning imloviy bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Masalan, o'qituvchi matnda imloviy xatolar mavjud bo'lgan gaplarni taqdim etadi va o'quvchilardan



xatolarni topib, to'g'rilashni so'raydi. Bu usul o'quvchilarning tahlil qilish va muammoni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Imloviy bilimlarni tekshirish va mustahkamlashda didaktik o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Raketa" o'yinini olaylik, "Raketa" o'yini imloviy bilimlarni tekshirishda qiziqarli va samarali usul sifatida qo'llaniladi, doskaga raketa tasviri chiziladi va har bir "yuk" sifatida imlo qoidalariga oid savollar yoziladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va to'g'ri javob bergan guruh "yuk"ni olib tashlaydi. Eng ko'p yukni olib tashlagan guruh g'olib hisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarning faolligini oshiradi va raqobat muhitini yaratadi. Bundan tashqari hozirgi rivojlangan davrda raqamli platformalardan foydalanish ham ta'limni sifatli tashkil qilishga yordam bermoqda. Raqamli platformalardan Kahoot va Quizizz imloviy bilimlarni tekshirishda keng qo'llanilmoqda. O'qituvchi imlo qoidalariga oid testlar tuzadi, o'quvchilar esa smartfon yoki kompyuter orqali savollarga javob beradilar. Platformalar real vaqtda natijalarni ko'rsatadi, bu esa o'qituvchiga o'quvchilarning bilim darajasini darhol baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limda imloviy bilimlarni tekshirishda interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Muammoli vaziyat" kabi metodlar o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirsa, "Raketa" o'yini va Kahoot kabi raqamli platformalar darsga raqobat va o'yin elementlarini kiritadi. Ushbu metodlar o'qituvchilarga o'quvchilarning imloviy ko'nikmalarini real vaqtda baholash va xatolarni tuzatish imkonini beradi. Kelajakda interfaol metodlarni ta'lim dasturlariga kengroq joriy etish va o'qituvchilarning ushbu metodlar bo'yicha malakasini oshirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta'limda interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanish. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, inlibrary.uz, 2023.
2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. ResearchGate, 2024.
3. Interfaol metodlar — O'qituvchilar uchun turli xil qiziqarli ma'lumotlar.2023.
4. Abdukodirova, M. (2020). Interfaol metodlar asosida darsni tashkil etish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Turaev, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
6. Jalolov, J. (2012). Ta'lim metodlari nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
7. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
8. Slavin, R.E. (1995). Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. Boston: Allyn & Bacon.
9. Azizxo'jaeva, N. (2003). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU.
10. Johnson, D.W., Johnson, R.T., & Holubec, E.J. (1994). Cooperation in the Classroom. Edina, MN: Interaction Book Company.